



**LED TELEVIZORLAR**

**FOYDALANISH YO'RIQNOMASI  
VA KAFOLAT TALONI**



## **UMUMIY TAVSIYALAR**

Televizor sotib olayotganda uning ishlashini va tarkibiy qismlarini tekshirib oling. Televizorning orqa qismida joylashgan raqamlar kafolat talonidagi raqamlar bilan mos kelishini tekshiring. Kafolat talonida sotuv sanasi, sotuvchi tashkilot muxri va tushunarli imzo borligiga ishonch hosil qiling. Shuni unutmangki, kafolat taloni yo'qolishida Siz televizorni kafolatli sozlashdan mahrum bo'lasiz.

Yo'riqnomadagi yirtib olinadigan qisimli talonlar sozlash korxonasi mutaxassislari tomonidan sozlash yakunlangandan so'ngina yirtib olinadi. Shunda har bir sozlash uchun faqat bitta talon yirtib olinadi. Televizorni sovuq joyda saqlangandan yoki qish sharoitlarida yetkazilgandan so'ng elektr tarmog'iga ulashdan oldin xona haroratida 4-5 soat qizib olishiga imkon yaratish zarur.

Televizor +5°C dan +40°C gacha bo'lgan havo haroratida 40% dan 85% gacha (+25°C da) nisbiy namlikda saqlanishi mumkin. Televizor 10°C dan 35°C gacha bo'lgan havo haroratida 45% dan 80% gacha (+25°C da) nisbiy namlikda 650 mm simob ustunidan 800mm simob ustunigacha atmosfera bosimida ekspluatatsiya qilinishi mumkin.

Televizorni zararlanishi, yonishini yoki elektr toki bilan kuyishini oldini olish maqsadida uni yomg'ir tagida saqlanishi yoki yuqori namlik sharoitlarida ishlatilishiga yo'l qo'ymang. Televizorni yoqishdan avval ushbu ekspluatatsiya yo'riqnomasi va birinchi navbatda xavfsizlik qoidalari, boshqaruv qismlari va televizor orqa qismidagi yozuvlar bilan yaxshilab tanishib chiqing.

### **Diqqat!!!**

**Iste'molchi tomonidan televizor ekraniga mexanik shikast yetkazilganda (ekranni sindirish, buyumlar uloqtirish, tushirib yuborish, ekran qismiga qo'l bilan shikast yetkazish) kafolat o'z kuchini yo'qotadi. Ya'ni iste'molchi tarafdin televizorni ekraniga shikast yetkazilganligi sababli televizorni ekranini yangisiga almashtirish bilan bog'liq xarajatlar iste'molchi tomonidan to'liq qoplanadi.**

## **XAVFSIZLIK QOIDALARI**

Televizorni ekspluatatsiya qilishda quyidagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish zarur:

- Televizorni tez yonuvchan va olov tarqatuchi jismlar yaqiniga o'rnatmang;
- Televizorni yaxshi sovushi uchun isitish qurilmalari oldiga o'rnatmang;
- Televizorni orqa qismidagi ventilyatsiya tuynugini yopib qo'ymang;
- Televizorni mustahkam bo'lmagan yuzalar, stollarga qo'ymang;
- Televizor yaqinida kamin va sham kabi ochiq olov manbalarini joylashtirmang;
- Kuchlanishi chegaradan chiquvchi elektr tarmog'iga televizorni ulamang;
- Televizorni yoqishdan avval elektr ulagichni zararlanmaganini tekshiring;
- Televizorni ulashda elektr ulagich qo'l yetarlik joyda bo'lishi kerak;
- Televizorni faqat mos audio-video komponentlarga va maxsus mo'ljallangan kabellarga ulang;
- Televizorni yoqilgan holda qoldirmang;
- Kundalik tartibida ishlovchi televizorni uzoq muddatga yolg'iz qoldirmang;
- Televizorni yomg'ir tagida yoki namlik joyda qolib ketishiga yo'l qo'ymang;
- Televizorni uzoq muddatga o'chirishda televizor elektr ulagichini sug'uring;
- Televizor ishlashida nosozliklar paydo bo'lganda, shuningdek notanish hid yoki tutun paydo bo'lganida televizorni elektr tarmog'idan su'guring va xizmat ko'rsatish mutaxassisiga murojaat qiling. Televizorni mustaqil qayta yoqishga harakat qilmang;
- Televizorni orqa qismini mustaqil yecha ko'rmang. Barcha sozlash ishlari xizmat ko'rsatish mutaxassislari tomonidan bajarilishi zarur;
- Televizorning orqa qismidagi ventilyatsion tuynuklarga o'zga metal buyumlar kirishidan saqlang. O'zga buyumlar yoki suyuqliklar korpus ichiga kirganda darhol elektr ulagichni elektr tarmog'idan sug'uring va xizmat ko'rsatish xodimiga qo'ng'iroq qiling;
- Televizorni doimiy tok yoki notanish tok manbaiga ulamang;
- Televizorni kuchlanish stabilizator orqali elektr tarmog'iga ulamang;
- Uzoq muddat harakatsiz tasvirlar, qora chiziqlar, ekran menyusi yoki vaqt ko'rsatkichlarini tasvirga chiqarmang. Shunday ehtiyoj tug'ilganda ekran zararlanmasligi uchun kontrast va yorug'likni kamaytiring;

Masofaviy boshqaruv pulti bilan ehtiyotkorona foydalaning. Uni uloqtirmang, ustiga chiqmang va unga hech qanday suyuqliklar to'kmang;  
Masofaviy boshqaruv pultini issiqlik manbalari oldida, quyosh nuri tushadigan joylarda yoki nam xonada qoldirmang;  
Televizorga ayniqsa ekraniga zarbalar yetishidan saqlang;  
Televizorga yoki uni foydalanuvchiga zarar yetmasligi uchun televizorni tushirib yuborishdan, boshqa jismlar bilan to'qnashishdan saqlang;  
Shaxsiy tashqi antennadan foydalanayotganda, yashindan saqlanish choralarini ko'rish zarur. Yashindan saqlanish bo'yicha maslaxat olish uchun mutaxassisiga murojaat qilishingiz mumkin;  
Televizordan bolalar foydalanishi faqatgina kattalar nazoratida bo'lishi lozim;  
Bataryalar quyosh nuri, olov, issiqlik tarqatuvchi xo'jalik buyumlaridan uzoqroq joylashtirish zarur va bataryalarni haddan tashqari qizib ketmasligini oldini olish zarur;  
Bataryalarni teshish, ajratish va mexanik ezish taqiqlanadi.

**Unutmang!**

**Yuqoridagi ko'rsatilgan qoidalardan birini buzish televizorni ishdan chiqishiga olib keladi.**

**TELEVIZORNI PARVARISHLASH**

Televizorni tozalash bo'yicha barcha ishlar elektr tokidan uzilgan holda amalga oshirilishi lozim;  
Televizor korpusini tozalash uchun zararsiz tozalash vositasi ishlatilishiga yo'l qo'yiladi;  
Televizor ekranini tozalash uchun quruq yumshoq mato yoki LED monitorlarni tozalash uchun mo'ljallangan salftetkalaridan foydalaning;  
Hech qanday holatda kislotali, kukunli yoki uchuvchan spirt, benzin, eritmali tozalash vositalaridan foydalanmang. Ushbu vositalarni qo'llash yoki rezinali jismlar bilan uzoq muddatli ishqalanish korpusga yoki ekran yuzasiga zarar yetkazishi mumkin;  
Suv yoki yuvuvchi vositani televizorga sachratmang. Ekran pastki yoki tashqi qismida suyuqlik yig'ilishi televizor buzilishiga olib kelishi mumkin;  
Chang yutgich yordamida doimiy ravishda televizor orqasidagi ventilyatsion tuynukni tozalab turing.

## XUSUSIYAT VA AFZALLIKLAR


Media	File Ext.	Codec		Remark
		Video	Audio	
Movie	.mpeg.mpg	MPEG 1/2, MPEG4, VC1	MPEG 1/2 Layer1, MPEG 1/2 Layer2, MPEG 1/2 Layer3, AC3, EAC3	1. Max resolution 1080 30fps 2. MPEG4 V2 not supported
	.vob.dat	MPEG 1/2		
	.ts, .tp, .trp	MPEG 1/2, H.264, VC1, H.263		
	.avi	MPEG 1/2, MPEG4, H.263, H.264, VC1, H.264	MPEG 1/2 Layer1, MPEG 1/2 Layer2, MPEG 1/2 Layer3, WMA, AC3	
	.mp4 .mov	MPEG 1/2, MPEG4 H.263, H.264, HEVC	MPEG 1/2 Layer3, AC3, EAC3	
	.mkv	MPEG 1/2, MPEG4, H.263, H.264, VC1, HEVC	MPEG 1/2 Layer1, MPEG 1/2 Layer2, MPEG 1/2 Layer3, WMA, AC3	
	.flv	H.264, VC1	MPEG 1/2 Layer3	
	.asf	MPEG 1/2, MPEG4, H.264, VC1, H.263	MPEG 1/2 Layer1, MPEG 1/2 Layer2, MPEG 1/2 Layer3, WMA	
Music	.mp3	--	MPEG 1/2 Layer1 MPEG 1/2 Layer2 MPEG 1/2 Layer3	Max Bit Rate 384Kbps
	.m4a	--	MPEG 1/2 Layer3	
	.wav	--	MPEG 1/2 Layer1 MPEG 1/2 Layer2 MPEG 1/2 Layer3 IMAADPCM	
Photo	.jpg .jpeg	Progressive JPEG		Max Resolution: 5360x8640
		Baseline JPEG		Max Resolution: 5360x8640
	.png	--		Max Resolution: 960x6400
		NonInterlaced		Max Resolution: 960x6400
Text	.txt	Interlaced		Max Resolution: 960x6400
		TMPlayer		File Size Max 1MB

### Eslatma:

Televizorni modeliga qarab yuqoridagi tasniflar va xususiyatlar o'zgarishi mumkin, bu televizor dasturiy taminotiga qarab o'zgarib boradi.

## TARKIBIY QISMLAR

Televizor	1 dona
Qo'llash yo'riqnomasi	1 dona
Masofaviy boshqaruv pulti	1 dona
Elektr quwatlanish qismlari AAA	2 dona
Televizor oyoqchalari	2 dona
Mustahkamlash vintlari	4 dona
Qadoqlash tarasi	1 dona



## TELEVIZOR OYOQLARINI O'RNPATISH



Sotuv qutisini oching, televizor korpusini va oyoqchalarini oling. Televizor korpusi yuzasidan himoya plyonkalarini olib tashlang. Televizor korpusini tekis, toza va yumshoq yuzaga o'rnatng.

Oyoqchalarini sxemada ko'rsatilish bo'yicha ulang. To'plamdagi vintlar yordamida oyoqchalarini mustahkamlang.

### DIQQAT!

**Mexanik shikast yetkazilishini oldini olish maqsadida ulanish extiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak.**


**Televizorga mexanik shikast yetkazilganda, kafolat xizmati o'z kuchini yo'qotishi mumkin. Qulab ketishning oldini olish maqsadida katta o'lchamli televizorni ko'chirishda ikki va undan ortiq kishi yoramidan foydalanish zarur.**



## TELEVIZORNI O'RNATISH TARTIBI

- Televizorni quyosh nurlaridan uzoqda, tekis, va mustahkam yuzaga o'rnatish. Begona nur tasvir qabul qilishni yomonlashtiradi va ekran yoritilishi yuqori kontrastligini va yorug'ligini talab etadi.
- Televizor va tomoshabin orasidagi eng maqbul masofa 1.5-2m (kichik televizorlar) va 2.5-3m (katta televizorlar)
- Tasvir markazi 0.7-1.2 m balandlikda joylashishi lozim.

Havoning yaxshi almashishi uchun televizor atrofida har bir tomonidan 10 smdan ko'proq bo'sh masofa bo'lishi talab etiladi.




## DEVORGA MUSTAHKAMLASH

Televizorni devorga o'rnatishda mustahkamlagich tayyorlovchi talablariga amal qilinayotganligini tekshiring. Televizorni ishonchsiz va mustahkam bo'lmagan devorga o'rnatmang. Ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan mustahkamlash moslamalaridan foydalaning. Televizor tarmoq kabelida va ulovchi signal kabellarida osilib turmasligi zarur.

VESA 200x200 va VESA 200x100 mm standarti. Mustahkamlash vintlari razmeri PB4x14 4(dona) va PB5x14 4(dona). Mustahkamlash moslamalari va vintlari tarkibiy qismlarga kirmaydi.

## MASOFAVIY BOSHQARUV PULTINING QUVVAT ELEMENTLARINI O'RNATISH

- Masofaviy boshqaruv pulti quvvatlash elementlari qismini oching
- AAA tipidagi quvvatlash elementlarini, ko'rsatilgan tartibda qutblarni saqlagan holda o'rnatish
- Quvvatlash elementlari qismini yoping



## DIQQAT!

- Masofaviy boshqaruv pultini tushirib yubormang va namlikdan saqlang.
- Masofaviy boshqaruv pultining quvvat elementlarini o'z vaqtida almashtirib turing. Bir vaqtning o'zida ham eski ham yangi quvvatlagichlardan foydalanmang. Akkumulyator quvvatlagichlaridan foydalanish tavsiya etilmaydi.
- Masofaviy boshqaruv pulti va televizor oldi panelidagi infraqizil nurlar qabul qilgichi orasidagi burchak 20 gradusdan kam

## TELEVIZORNI ULASH

Televizor 50/60Hz o'zgaruvchan tokda 100-240 V kuchlanishda ishlaydi. Televizorning o'zgarmas tok manbaiga yoki stabilizator orqali o'zgaruvchan tok manbaiga ulamang.

Yuqori sifatli televizor tasviri tashqi antennadan foydalanilganda erishiladi va har doim ham yuqori sifatli tasvirga xona antenasida erishilmaydi.

Antenna uchun koaksial kabledan foydalanilayotganda (75Om) hech qanday qo'shimcha qurilmalardan foydalanmagan holda shtekerni bevosita DTV-T/T2 (ANT(T/T2)) kirishiga ulang.

Antenna shtekerini televizorning orqa qismidagi antenna kirishiga ulang. Elektr quvvat kabelini elektr rozetkasiga ulang. Televizor kundalik rejimida bo'ladi. Kundalik rejimi indikatorini televizor oldi qismida qizil rang bilan yonadi.

## ANTENNANI O'RNATISH

Televizorning orqa qismida joylashgan antenna kirishiga antenna kabeli shtekerini o'rnating.

Televizor signalini sifatli qabul qilishini ta'minlash maqsadida kollektiv antennadan foydalanish tavsiya etiladi. Efirli uzatishni yaxshi qabul qilish uchun 75 Om to'lqin qarshilikli koaksial radiochastotali kabledan foydalaning.

ANT(S/S2)\*



Suniy yo'ldosh antenasi

DVB-T/T2  
ANT(T/T2)




DTV va ATV antenasi

### Diqqat!

Tashqi individual antennadan foydalaniladigan bo'lsa yashindan himoyalanish zarur.



## Ulanish nuqtalari tavsifi



1. **HDMI 1,2** - HDMI audio va video kirishlari. HDMI1 - Audio chiqish - ARC funksiyasini ham qo'llab quvvatlaydi.
2. **USB** -versiya 2.0. **USB** xotira qurilmasini ulash uchun ulagich.
3. **ANT2 SATELLITE** - sun'iy yo'ldosh televideniya antenasini ulash joyi.  
**ANT1** - analog va raqamli televidenie uchun antenna ulash joyi. (Efir Antena yoki Kabel antena)
4. **DIGITAL AUDIO OUT** - Raqamli audio signalni tashqi audio tizimga chiqarish.
5. **AV** - kompozitsion mini audio / video kiritish.
6. **COMMON INTERFACE** - raqamli televideniya kartasining kiritish joyi.

## Televizorga ulanish bo'yicha maslahatlar

Hech qachon televizorni turli parametrlarga ega quvvat manbaiga ulamang! Har qanday qurilmani televizorga ulashdan yoki qurilmani televizordan uzishdan oldin, televizor va qurilmaning quvvatini o'chiring, kerakli ulanishlarni o'rnatib, so'ngra televizor va ulangan qurilmaning quvvatini yoqing. Quvvat kabeli yoki signal kabelini ajratish yoki ulashda vilkani (izolyatsiya qilingan qismi) ushlab turing va kabelni tortmang.


Raqamli televideniya sifatli tasvir olish uchun tashqi antenna yoki mahalliy kabel tarmog'idan foydalanishni tavsiya etamiz.

**Signal yo'q** - Tashqi qurilmadan signal kiritilmaganda ekranda "Signal yo'q" yozuvi paydo bo'ladi. Agar uzoq vaqt signal bo'lmasa, televizor avtomatik ravishda kutish rejimiga o'tadi.

## Eslatma:

**Televizor modeliga (dasturiy ta'minotiga) qarab masofaviy boshqarish pultrlari va televizor menyu sozlamalari yo'riqnomaga mos kelmasligi mumkin, lekin ishlash printsiplari (tamoyili) o'zgaraydi.**


## Masofadan boshqarish pulti tugmalari va ularning vazifalari



1. POWER televizorni yoqish va o'chirish / kutish rejimiga o'tish.
2. MUTE Ovozni o'chirish.
3. 0-9: Telekanal raqamlari va raqamli parolni kiritish uchun raqamli tugmalar.
4. AUDIO tilni tanlash va ovoz rejimlarini almashtiruvchi tugmasi.
5. RECALL - oldingi ko'rilgan dasturga qaytish.
6. Rangli tugmalar: ular menyu va teletext bilan ishlashda mos ravishda rangli ob'ektlarda ko'rsatilgan funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan.
7. MENU: TV sozlamalari menyusiga o'tish / menyu bo'limining oldingi darajasiga qaytish tugmasi.
8. EXIT: joriy menyudan chiqish tugmasi.
9. ENTER: menyuda tanlash yoki tasdiqlash tugmasi.
10. Menu da navigatsiya tugmalari.
11. EPG: elektron dasturlar jadvalini raqamli televideniya rejimida ko'rsatish tugmasi.
12. INFO: telekanal / manba ma'lumotlarini ekranda ko'rsatish tugmasi.
13. SLEEP: Televizorni o'chirish taymerini sozlash tugmasi.
14. ZOOM: Tasvir formatini tanlash tugmasi.
15. SOURCE: Manba tanlash tugmasi. Ochilgan menyuda kerakli manbani tanlang va ENTER tugmasini bosing.
16. LIST: Kanallar ro'yxatini chaqirish tugmasi.
17. VOL + / VOL-: Ovozni boshqarish tugmalari.
18. Keyingi / oldingi telekanalga o'tish tugmalari.
19. Media pleyer rejimida tez orqaga qaytarish, tez oldinga o'tkazish, oldingi faylga o'tish va keyingi faylga o'tish tugmalari.
20. Media pleyer rejimida ijro etishni to'xtatish tugmasi.
21. Media pleyer rejimida ijro etish to'xtatib turish yoki ijro etish tugmasi.
22. Sevimli telekanallar ro'yxatini chaqirish tugmasi (avval menyuda sevimli kanallaringizni aniqlab tanlash kerak).
23. Raqamli televidenie rejimida TV dasturini yozish rejimini faollashtirish tugmasi.
24. STILL: Tasvirni muzlatish tugmasi - "kadri muzlatish" yoqish / o'chirish. va HOLD: Teletext sahifasini ushlab turish va qo'yib yuborish tugmasi.

25. Teletekst rejimiga o'tish / MIX rejimiga o'tish tugmasi(rasm va teletekst bir vaqtning o'zida ekranda mavjud) / teletekst rejimidan chiqish.
26. TimeShift: kechiktirilgan TV dasturini yoqish tugmasi.
27. SIZE: Teletekst oynasining o'lchamini o'zgartirish tugmasi (normal, yuqori kattalashtirilgan, pastki kattalashtirilgan).
28. SUBTITLE: DTV rejimida subtitrni yoqish / o'chirish tugmasi. SUBPAGE: teletekst pastki sahifalarini ko'rish tugmasi.
29. INDEX: asosiy teletekst sahifasiga o'tish tugmasi (teletekst menyusi). EPG rejimida vaqt yoki kanal bo'yicha saralashni o'zgartirish tugmasi. Raqamli televidenie rejimida yozuvlar ro'yxatini kiritish tugmasi.
30. RADIO: Raqamli televidenie rejimida radio va teledasturlar o'rtasida almashish tugmasi. REVEAL: teletekst rejimida yashirin matnни ko'rsatish tugmasi. Matnни yashirish uchun yana shu tugmani bosing.
31. DMP: Media pleyer rejimiga o'tish tugmasi.

**Eslatma:** Tavsifda ko'rsatilmagan masofadan boshqarish tugmalari televizorni ishlatganda ishlatilmaydi. Masofadan boshqarish pulti televizordagi sensordan va pultning old tomonidagi buyruq uzatgichidan foydalanadi. Masofadan boshqarish pultini aniq televizor sensoriga qarating. Agar televizorda masofadan boshqarish pulti va qabul qilgich o'rtasida biror narsa yoki to'siq bo'lsa, boshqaruv elementlari ishlamasligi mumkin. Televizorni yorug' joyda ishlatganda, masofadan boshqarish pulti to'g'ri ishlamasligi mumkin. Masofadan boshqarish pultidan foydalanish uchun tavsia etilgan samarali masofa - 7 m.



Smart Televizorning modeliga qarab ovoz bilan boshqariluvchi masofadan boshqarish pulti televizorning komplektatsiyasida mavjud bo'lishi mumkin. Bu televizorning modeliga bog'liq.

1. Televizorni yoqish yoki o'chirish.
2. ▲/▼/◀/▶: Yo'nalishni tanlash uchun kerakli navigatsiya tugmasi.
3. OK: Menu ekranida tanlangan elementni bajarish uchun. Kanallar ro'yxatini ko'rsatish uchun (DTV /ATV rejimi).
4. MENU: Har xil ixtiyoriy sozlamalar uchun menyu ekraniga kirish uchun.
5. TV: telekanalga o'tish.
6. Signal manbasini tanlash uchun.
7. Ovozni baland yoki pastligini sozlash uchun.
8. Ijro etish yoki To'xtatish (USB rejimida).
9. Aqlli uy sahifasiga kirish.
10. Ovozli buyruq funksiyasini yoqish.
11. Oxirgi ko'rilgan dasturga qaytish.
12. Ovozni o'chirish yoki tiklash.

**Dastlabki sozlamalar.**

Kerakli ulanishlarni o'rnatgandan so'ng, televizorni elektr manbaiga ulang. Agar televizorda quvvat tugmasi bo'lsa, uni yoqing. Televizor kutish rejimiga o'tadi. Kutish rejimida televizorni yoqish uchun televizordagi yoki masofadan boshqarish pultidagi tugmasini bosing. (Kutish holatiga o'tkazish uchun televizordagi tugmachasini bosib turing yoki masofadan boshqarish pultidagi tugmasini bosing. Agar siz televizorni butunlay o'chirib qo'yishingiz kerak bo'lsa, quvvat simini rozetkadan uzing.

**Dastlabki sozlash**

Televizor birinchi marta yoqilganda, ekrandagi bir qator ko'rsatmalar televizorning asosiy sozlamalarini ko'rsatadi.

**1. Til**

Menyu tilini tanlash uchun tugmalarini bosing, so'ng tanlovni tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Keyin ► tugmasini bosib keyingi bosqichga o'ting.

**2. Mamlakat**

Mamlakatni tanlash uchun tugmalarini bosing, so'ng tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Keyingi / oldingi bosqichga o'tish uchun ◀▶ tugmalaridan foydalaning.

**3. Vaqt mintaqasi**

Vaqt mintaqasini tanlash uchun tugmalarini bosing, so'ng tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Keyingi / oldingi bosqichga o'tish uchun ◀▶ tugmalaridan foydalaning.

**4. Foydalanish tartibi**

Uy yoki do'kon rejimini tanlash uchun tugmalarini bosing, so'ng tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Keyingi / oldingi bosqichga o'tish uchun ◀▶ tugmalaridan foydalaning.

**5. Antenna turi**

Antenna turini tanlash uchun tugmalarini bosing: Havo, kabel yoki yo'ldosh, keyin tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Keyingi / oldingi bosqichga o'tish uchun ◀▶ tugmalaridan foydalaning.

**6. TV dasturlarini avtomatik qidirish**

Dasturlarni avtomatik qidirishni boshlash uchun ► tugmasini bosing. Raqamli kanallar birinchi navbatda qidiriladi. Raqamli kanal sozlamalarini o'tkazib yuborish uchun masofadan boshqarish pultining MENU tugmasini, so'ngra ◀ ni bosing. Keyin analog kanallar sozlanadi. Analog sozlashni o'tkazib yuborish uchun masofadan boshqarish pultidagi MENU tugmasini bosing, keyin ◀ bosing. Qidiruv biroz vaqt olishi mumkin. Qidiruv oxirida dastlabki sozlash tugallanadi.

**ESLATMA:** Agar televizor hech qanday telekanal topmasa, to'g'ri ulanish va antenna sozlamalarini tekshiring, yana telekanallarni avtomatik qidirishni boshlang. Agar televizor barcha telekanallarni qabul qilmasa, demak sizning antennangiz to'g'ri ishlamayapti. Antennaga texnik xizmat ko'rsatish tavsiya etiladi.

## Televizordan foydalanish

### Asosiy funksiyalar

Televizorni yoqish. Televizorning vilkasini elektr manbaiga ulang. Agar sizning televizoringiz elektr tarmog'iga ulangan bo'lsa, uni yoqing. Televizor kutish rejimiga o'tadi. (Kutish rejimida televizorni yoqish uchun televizor yoki masofadan boshqarish pultidagi tugmasini bosing).

Televizorni o'chirish. Agar siz televizorni bir muddat o'chirishingiz kerak bo'lsa, televizor qutisidagi tugmachasini bosib turing yoki masofadan boshqarish pultidagi tugmani bosing. Agar siz televizorni to'liq o'chirishingiz kerak bo'lsa quvvat simini ajratib oling.

### Unutmang

Agar siz televizordan uzoq vaqt foydalanishni rejalashtirmasangiz, uni tarmoqdan uzing. Elektr uzilib qolganda, kuchlanish qayta tiklangandan so'ng, televizor avtomatik ravishda kutish holatiga o'tadi. Ishonchsiz ishlashiga yo'l qo'ymaslik uchun televizorni tez-tez yoqish va o'chirish tavsiya etilmaydi. Kutilayotgan elektr uzilishi yoki momaqaldiroq bo'lsa, televizorning vilkasini tarmoqdan uzish tavsiya etiladi.


Televizion dasturlarni qabul qilish rejimida, agar uzoq vaqt davomida telekanaldan signal bo'lmasa, televizor avtomatik ravishda kutish rejimiga o'tadi.

### Signal manbasini tanlash

Ijro etiladigan manbani tanlash uchun, masofadan boshqarish pultidagi SOURCE tugmachasini va manba menyusida, mavjud manbani tanlash uchun tugmachasini bosing, so'ng tanlovingizni tasdiqlash uchun ENTER tugmasini bosing. **ESLATMA:** To'g'ri signal manbasini tanlashdan oldin, ushbu manbaga barcha kerakli ulanishlarni o'rnatganingizga ishonch hosil qiling.

## Televizorni sozlash

Televizorning turli funksiyalarini faollashtirish va sozlash uchun sozlash menyusidan foydalaning. Sozlamalar menyusini ekranda ko'rsatish uchun masofadan boshqarish pultidagi MENU tugmasini bosing.



Menyu bandini tanlash uchun ◀▶ tugmachalarni bosing: Kanal (TV kanali sozlamalari menyusini), Tasvir (tasvir sozlamalari menyusini), Ovoz (ovoz sozlamalari menyusini), Vaqt (vaqt sozlamalari menyusini), Nazorat (nazorat sozlamalari menyusini), Sozlamalar (kengaytirilgan sozlamalar menyusini). Keyin tanlangan menyu bo'limining sahifasiga o'tish uchun ENTER tugmasini bosing. O'zgartiriladigan elementni tanlash uchun dan foydalaning. Tanlangan parametрни ◀▶ tugmalar yordamida sozlang yoki ENTER tugmasini bosib sozlang. Oldingi menyuga qaytish uchun MENU tugmasini bosing. O'rnatish menyusidan chiqish uchun EXIT tugmasini bosing.


### Unutmang

Ushbu qo'llanmadagi menyu tasvirlari faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan va ularning haqiqiy ko'rinishidan farq qilishi mumkin.

## Telekanal sozlamalari menyusi

Antenna turi: Televizor signal manbasini tanlang: Antena (ichki yoki tashqi individual antenna), kabel (mahalliy televideniya kabel tarmog'iga ulanish) yoki sun'iy yo'ldosh (sun'iy yo'ldosh antennasidan qabul qilish).

### 1. Agar antenna turi Antenna tanlangan bo'lsa




### Avtomatik sozlash

Avtomatik sozlash satriga o'ting va TV kanallarini avtomatik qidirish va saqlash uchun ENTER tugmasini bosing. Televizor barcha kanallarni qidiradi - analog, raqamli va avtomatik ravishda to'xtaydi.

Qidiruvni to'xtatishga majbur qilish uchun MENU tugmasini bosing.

### RTV qo'lda sozlash

Raqamli Televizion kanallar mustaqil sozlash. Bu menyu faqat RTV raqamli televidenie rejimida mavjud. Pastki menyuga kirish uchun ushbu parametрни belgilang va ENTER tugmasini bosing. Raqamli multipleks uzatiladigan chastotani (telekanal) tanlash uchun ◀▶ tugmalaridan foydalaning va qidirishni boshlash uchun ENTER tugmasini bosing. Telekanallar topilganda, qidiruv to'xtatiladi, topilgan telekanallar joriy raqam ostida saqlanadi. Agar qidiruv natijasi sizni qoniqtirmasa, qidirishni davom ettirish uchun ◀▶ tugmalaridan birini bosing.



### ESLATMA:

Android Televizorlarida sozlash interfeysi ko'rinishi bir xil bo'lmaydi, lekin sozlash funksiyasi bir xil bo'ladi. Android televizorlarni yuqoridagi sozlamalarga qarab sozlash tavsiya etiladi.

## 2. Agar antenna turi - kabel tanlangan bo'lsa:

Avtomatik qidirish.

Avtomatik qidirish satrini tanlang va ENTER tugmasini bosib, o'z mamlakatingizni belgilang, qidiruv turini tanlang va boshqa sozlamalarni kiriting, so'ngra qidirishni boshlash uchun ENTER tugmasini bosing.

Qidiruv turi.

Qidiruv tarmog'ini tanlashingiz mumkin, keyin siz chastotani, tarmoq identifikatorini va tezligini qo'lda sozlashingiz kerak.

Chastotani: masofadan boshqarish pultidagi raqamli tugmalar yordamida mahalliy kabel operatori ishlatadigan chastotasini kiriting - tugatgandan so'ng ENTER tugmasini bosing.

Tez qidiruv rejimida siz faqat kabelli raqamli kanallarni qidirishingiz mumkin, bu rejimda analog telekanallarni qidira olmasiz.

## Tahrirlash

Menu tugmasi bosamiz. KANAL tanlaymiz dasturni tahrirlash funksiyasiga kiramiz.

Tahrir qilmoqchi bo'lgan kanalni tanlash uchun navigatsiya tugmalaridan foydalaning. Tanlangan telekanalni o'chirish uchun (MBPdagi qizil rangdagi) tugmani bosing. Belgilangan telekanalni o'tkazib yuborish uchun (MBPdagi ko'k rangdagi) tugmani bosing (yoki aksincha, o'tkazib yubormaydi).

## ESLATMA

Agar biron -bir telekanalda o'tkazib yuborish o'rnatilgan bo'lsa tugmalari bilan telekanallarni almashtirsangiz, bu telekanal o'tkazib yuboriladi. Biroq, siz raqamli tugmalar yordamida uning raqamini kiritish orqali unga o'tishingiz mumkin.



Tanlangan telekanalni siljitish uchun MBPdagi sariq tugmasini bosing. Navigatsiya tugmalaridan foydalanib, tanlangan kanalni kerakli joyni tanlang va sariq tugmasini qayta bosing.

♥ tugmasini bosib, sevimli telekanal ro'yxatiga qo'shing (kanallarni sevimlilarda to'rt guruhga birlashtirish mumkin).

**CI Information** - raqamli televideniya kartasi haqida ma'lumot.

Agar televizoringizda kirish kartasi bo'lsa, batafsil ma'lumotni ko'rish uchun ushbu parametрни belgilang va ENTER tugmasini bosing. Bu ma'lumot faqat raqamli televidenie rejimida mavjud.



## Tashqi qurilmalarni ulash

**Diqqat!** Har qanday tashqi qurilmani televizorga ulashdan oldin, ikkala qurilmani tarmoqdan uzing.

Tashqi qurilmaning chiqishini televizorning audio / video kirishiga maxsus sim bilan ulang (televizor bilan ta'minlanmagan). AV rejimi menyusini ko'rsatish uchun masofadan boshqarish pultidagi SOURCE tugmani bosing. Ro'yxatdan yangi manbani tanlash uchun masofadan boshqarish pultidagi tugmalardan foydalaning. Tasdiqlash uchun masofadan boshqarish pultidagi OK tugmasini bosing. Televizion stantsiyalarni ko'rishga qaytish uchun masofadan boshqarish pultidagi SOURCE tugmachasini qayta bosing.



ATV-ni tanlang, masofadan boshqarish pultidagi OK tugmasi bilan tanlovingizni tasdiqlang. Ulanishdan oldin ulanadigan uskunaning foydalanish bo'yicha qo'llanmasini o'qing. Tashqi qurilmadan signalni ijro etish uchun tegishli audio video yozuvlarni to'g'ri tanlang.



Quyidagi amallarni bajaring:

1. Antennani videokameraga ulang (ANT IN). Antenna kabelini DVB-T/T2 televizorning (ANT (T/T2) va Videomagnitafon (ANT OUT) antenna konnektoriga ulang.
2. Tashqi qurilmani televizorning AV IN kirishiga ulaganda, AV kabelidan foydalaning.



### **Hurmatli xaridor!**

"BRANDO" savdo belgisi ostida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonada Sizni to'g'ri tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiradi. Biz Sizning talab va ehtiyojlaringizdan kelib chiqib mahsulotlarimiz sifat darajasini standart talablariga javob bera olishiga erishdik.

#### **1. Mahsulotlarning kafolat va xizmat muddatlari**

1. Mahsulotlar foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq foydalanilganda, "BRANDO" savdo belgisi ostida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonada o'zining maishiy texnika mahsulotlariga quidagi xizmat muddatini belgilaydi:

##### ***Televizorlar uchun - 3 yil***

Xizmat muddati tugagandan so'ng mahsulotni xizmat ko'rsatish markaziga profilaktika va maslahat olish uchun borish tavsiya qilinadi,

2."BRANDO" savdo belgisi ostida ishlab chiqarilgan televizor mahsuloti uchun kafolat muddati 36 oyni tashkil qiladi. Kafolat muddati ikki qismdan iborat: Birinchi 24 oy ichida to'liq kafolat xizmati (to'liq xizmat o'z ichiga ta'mirlash ishlari va extiyot qismlarni almashtirishni oladi) va keyingi 12 oy ichida qisman kafolat xizmati ko'rsatadi, (bunda mijoz ehtiyot qismlar uchun ketgan harajatlarni o'z hisobidan qoplaydi, ishlab chiqaruvchi esa kafolat xizmati harajatlarini qoplaydi).

3.Kafolat muddati mahsulot iste'molchiga sotilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar mahsulot sotilgan sanasini aniqlashning imkoni bo'lmasa, bu muddat mahsulot ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

4.Mahsulot xarid qilayotganingizda va foydalanishdan avval "foydalanish bo'yicha yo'riqnomani"ni diqqat bilan o'qib chiqishingizni so'raymiz. Shuningdek, kafolat talonining to'g'ri to'ldirilganligini tekshiring. Tekshirish davomida Siz xarid qilgan mahsulotning modeli, nomi va seriya raqami kafolat talonidagi yozuv bilan bir xil bo'lishi shart. Ushbu talonga hech qanday o'zgartirishlar va tuzatish kiritish mumkin emas. Aks holda kafolat taloni yaroqsiz hisoblanadi va bepul servis xizmati amalga oshirilmaydi.

5.Mazkur mahsulot maishiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, murakkab texnika tuzilishiga ega. Mahsulotdan foydalanish bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilib, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lsangiz, bizning mahsulot Sizga uzoq yillar davomida ishonchli xizmat qiladi. Mahsulotdan foydalanish jaroyonida kelib chiqadigan mexanik nosozlikdan, shuningdek, mahsulotning ichki qismiga suyuqlik, hashorat, kemiruvchi va boshqa narsalar tushishiga yo'l qo'ymang. Xizmat muddati davomida mahsulotning model nomi va seriya raqami ko'rsatilgan yo'riqnomaga yaxshi saqlanishiga e'tibor bering.

## 2. Kafolat shartlari

1.Kafolat muddati mahsulot iste'molchiga sotilgan kundan boshlab hisoblanadi.

2.Kafolat taloni yo'qotilgan taqdirda mahsulotning orqa qismida ko'rsatilgan seriya raqami orqali kafolat muddati ishlab chiqarilgan sanadan belgilanadi.

3.Kafolat taloni taqdim etilmaganda yoki yaroqsiz kafolat taloni taqdim etilganda bepul servis xizmati amalga oshirilmaydi. Bunday holatda servis markazi tomonidan kafolat muddati ishlab chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanishi va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun haq talab qilinishi mumkin.

4.Servis xizmati faqat O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan rasmiy servis markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

5.Mahsulotdagi nosozlik kafolat qo'llanilmaydigan holatlar natijasida kelib chiqmagan bo'lsa, servis xizmat ko'rsatish markazi mahsulotni kafolat muddati davomida bepul tamirlab beradi.

**Diqqat!!! Kafolat taloni titul qirqiladigan kuponda faqat sotuvchi muhri mavjud bo'lgandagina haqiqiydir.**

6.Kafolat muddati davomida servis xizmat ko'rsatish markazi tomonidan 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi. Servis xizmat markazida zarur ehtiyot qismlar mavjud bo'lmaganda, tamirlash muddati qo'shimcha 15 kunga uzaytirilishi mumkin. Ta'mirlash uchun ketgan vaqt kafolat muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

7.Ishlab chiqaruvchi kafolat muddati mobaynida mahsulotning, shu jumladan, butlovchi qismlarning normal ishlashini ta'minlaydi.

8.Agar mahsulotdagi nosozlik bartaraf qilish uzoq muddatni talab qilsa, tamirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli mahsulot o'rniga unga ayni shunday markali yoki xususiyatlari undan kam bo'lmagan mahsulot berib turiladi.

9.Bepul servis xizmat ko'rsatish ehtiyot qismlar asosida bepul ta'mirlashni anglatadi. Kafolat muddati davomida barcha ehtiyot qismlar bilan taminlash va servis xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy servis markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

10.Mahsulotlarni servis markazigacha yetkazish bilan bog'liq transport xarajatlar mijoz tomonidan qoplanadi.

**Diqqat!!! Iste'molchi tomonidan televizor ekraniga mexanik shikast yetkazilganda (ekranni sindirish, buyumlar uloqtirish, tushirib yuborish, ekran qismiga qo'l bilan shikast yetkazish) kafolat o'z kuchini yo'qotadi.**

**Ya'ni iste'molchi tarafdin televizorni ekraniga shikast yetkazilganligi sababli televizor ekranini yangisiga almashtirish bilan bog'liq xarajatlar iste'molchi tomonidan to'liq qoplanadi.**

### 3.Kafolat qo'llanilmaydigan holatlar

1. Quidagi keltirilgan holatlarda texnik nosozlik kelib chiqqanda kafolat va bepul xizmat ko'rsatish amalga oshirilmaydi:

- Iste'molchi tomonidan mahsulotdan foydalanish, saqlash va transportda tashish qoidalari buzilishi natijasida;
- Uchinchi shaxslar harakati (yoki harakatsizligi) natijasida;
- Iste'molchi yoki o'rnatuvchi ruxsat berilmagan konstruktiv va sxemotexnik o'zgarishlarni vakolatsiz shaxslar tomonidan kiritishi va ta'mirlashi natijasida;
- Davlat Texnik Standartiari (O'zDST va boshqalar) bo'yicha ishlaydigan kabel tarmoqlar meyorlaridan, shuningdek kuchlanish darajasidagi tafovutlar va o'zgarishlar natijasida;
- Yengib bo'lmaydigan kuch tasiri (tabiiy ofatlar, yong'in, chaqmoq va hokazo) natijasida;
- Hayvonlar, kemiruvchilar va boshqa hashoratlar yetkazgan zarar natijasida;
- Mahsulotning o'rnatilgan plombalari buzilgan taqdirda;
- Foydalanish bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilganidan ko'p muddatda uzluksiz foydalanish natijasida;
- Mahsulotga kimyoviy vositalar tushishi, to'kilishi va boshqa xil ko'rinishda zarar yetkazishi natijasida;
- Mahsulot ustiga belgilangan meyordan ortiq yuk qo'yish natijasida;
- Mahsulotni o'rnatish va undan foydalanishning tegishli qoidalariga rioya etmagan holda kelib chiqqan buzilishlarda;
- Vakolatli bo'lmagan shaxslar tomonidan mahsulot ko'rpusini ochish, tuzatish va modernizatsiya qilish natijasida kelib chiqqan buzilishlarda;

2. Maishiy texnika mahsulotlaridan tijorat maqsadlarida foydalanilganda bepul xizmat ko'rsatish muddati 6 oy etib belgilanadi. Agar mahsulotning qo'shimcha aksesuarlar va qisimlarning sinishi aniqlab bo'lmaydigan sabablar, shuningdek, mahsulotdan foydalanish, saqlash va transportda tashish qoidalari buzilishi sababli kelib chiqqan bo'lsa, ularga kafolat asosida bepul servis xizmat ko'rsatilmaydi va qo'shimcha aksesuarlar almashtirilmaydi.

3. Bepul servis xizmati quidagi xarajatlarni o'z ichiga olmaydi:

- Elektr tarmog'iga ulash shnurini almashtirish;
- Tashqi oynani almashtirish;
- Chiroq va plafonlarni almashtirish;
- Korpus detallarini almashtirish;
- Mahsulot o'rnatilgan yoki foydalanilayotgan joyga mahsulotdan foydalanish tartibini tushintirishga borish.



## Kafolat taloni

**Diqqat! Iltimos sotuvchidan kafolat taloni va qirqish kuponlarini to'liq to'ldirishni talab qiling**


<b>Mahsulot nomi</b>	
<b>Modeli</b>	
<b>Seriya raqami</b>	
<b>Sotilgan sana</b>	
<b>Sotuvchi korxonona</b>	
<b>Sotuvchi manzili</b>	
<b>Sotuvchining telefon raqami</b>	

Mahsulot tegishli qismlari birgalikda soz holda va foydalanish uchun yo'riqnoma bilan oldim.  
Kafolat shartlari va bepul servis xizmat ko'rsatish bilan tanishdim va unga rozilik beraman.

Sotib oluvchi imzosi

Sotuvchi korxonona muhri

Ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot



"BRANDO TECH" MCHJ

Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Istiqlol MFY, Anhor ko'chasi, 1 uy

**Servis markazi**  
**+99870-202-44-55**  
**+99898-272-44-55**

## BRANDO Qirqish taloni "A"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonah muhri

---

## BRANDO Qirqish taloni "B"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonah muhri

---

## BRANDO Qirqish taloni "C"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonah muhri

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Sotuvchi korxonona muhri
--------------------------

---

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Sotuvchi korxonona muhri
--------------------------

---

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Sotuvchi korxonona muhri
--------------------------



**Yagona axborot markazi**

**+998 70 202-44-55**

**+998 98 272-44-55**